

# **BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT**

*2022- yil 1- may holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*


*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tom onlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli rux satnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari sod dalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oylarida)



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-aprel oylarida, birlikda)




# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- may holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **1,3** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliq xo‘jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,7** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**155**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**4 650**

Ishlab chiqarish sanoati

**17**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**99**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- may holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 4 921 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,7 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 104,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,5%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 108,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 85,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,3 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 123,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0 %) o'sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,5** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik sub'yektlari soni




**2,3** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**5,4** foizga oshdi




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar






# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- may holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik sub'yektlar isoni




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

760



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

24



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

14



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



398

yashash bo'yicha xizmatlar



2 049

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2022- yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonona va tashkilotlar soni 2 447 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 105,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,7%), yashash bo'yicha xizmatlarning-105,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 17,1 %) o'sishidir.




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



# Oilaviy korxonalar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- may holatiga ko'ra 3 693 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 344 taga yoki 110,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 352 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 247 taga yoki 108,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 192 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 223 taga yoki 53,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra 370 tani tashkil etib, ulardan 365 tasi yoki 98,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 49 taga yoki 115,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- aprel oylarida viloyatimizda 15 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- aprel oylarida, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

14



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Jami</b>	<b>100</b>	<b>207</b>	<b>286</b>	<b>316</b>	<b>365</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	3	17	20	28	33
<b>Sanoat</b>	59	97	122	124	133
<b>Qurilish</b>	4	14	28	34	32
<b>Savdo</b>	17	38	59	72	96
<b>Tashish va saqlash</b>	-	2	6	5	7
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	7	17	23	23	26
<b>Axborot va aloqa</b>	-	1	1	1	5
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	1	4	6	6	8
<b>Boshqa turlar</b>	9	17	21	23	25

# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

15

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>365</b>	<b>205</b>	<b>160</b>
<b>Buxoro shahar</b>	197	93	104
<b>Kogon shahar</b>	17	14	3
<i>tumanlar:</i>			
<b>Olot</b>	6	1	5
<b>Buxoro</b>	27	21	6
<b>Vobkent</b>	5	4	1
<b>G'ijduvon</b>	11	7	4
<b>Kogon</b>	27	20	7
<b>Qorako'l</b>	8	6	2
<b>Qorovulbozor</b>	9	4	5
<b>Peshku</b>	21	9	12
<b>Romitan</b>	13	9	4
<b>Jondor</b>	15	11	4
<b>Shofirkon</b>	9	6	3

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 197 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 54,0 %), Kogon tumani 27 ta (7,4 %), Peshku tumani 21 tani (5,8 %), Kogon shahar 17 ta (4,7 %), Buxoro tumani 27 ta (7,4 %), hamda Jondor tumanlarida 15 tani (4,1 %) tashkil etadi.

## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2022- yil 1- may holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)




2018-2022- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investisiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.



# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



2022-yil 1-may holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (28,0 %), G'ijduvon (10,9 %), Romitan (8,4 %), Buxoro (7,6 %), Jondor (6,8 %), Peshku (5,9 %), Shofirkon (6,0 %), Kogon (5,3 %), Qorako'l (5,7 %), Vobkent (5,3 %), Kogon shahar (4,2 %), Olot (3,6 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)

2022-yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (23,8 %), G'ijduvon (11,2 %), Buxoro (8,6 %), Romitan (10,4 %), Peshku (4,3 %), Kogon (7,3 %), Jondor (7,8 %), Vobkent (6,1 %), Shofirkon (6,1 %), Qorako'l (5,2 %), Olot (3,0 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumanlari va Kogon shahar (3,9 %) ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni



(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (28,9 %), G'ijduvon (10,5 %), Romitan (8,8 %), Buxoro (7,9 %), Jondor (7,1 %), Peshku (5,8 %), Shofirkon (5,8 %), Kogon (5,6 %), Vobkent (5,3 %), Qorako'l (4,7 %), Kogon shahar (4,1 %), Olot (3,1 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022-yilning yanvar- aprel oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik sub'yektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Buxoro viloyati**

**Statistik registrnlarni yuritish bo'limi**

**Tel.: (65) 223-83-20**